

**TARJIMASHUNOSLIKDA MASHINA TARJIMASI VA UNING
AHAMIYATI****Dildora ABDUSODIQOVA***ToshDO‘TAU Tarjima nazariyasi
va amaliyoti – ingliz tili yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashina tarjimasi tushunchasiga ta’rif beriladi. Mashina yoki avtomatik, kompyuter tarjimasi maxsus kompyuter dasturi yordamida matnlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishdir. Maqolada mashina tarjimasining amaliy ahamiyati, afzalliklari, shu bilan birgalikda, bir qator kamchiliklari haqida so‘z boradi, ilmiy asosda dalillanadi.

Kalit so‘zlar: mashina tarjimasi, statistik mashina tarjima, neyron tarmoqlarga asoslangan mashina tarjimasi, tizim xotira, kirish xabari, chiqish xabari.

Abstract: This article defines the concept of machine translation. Machine or automatic, computer translation is the translation of texts from one language to another using a special computer program. The article discusses the practical importance of machine translation, its advantages, as well as a number of disadvantages, and provides scientific evidence.

Keywords: machine translation, statistical machine translation, neural network-based machine translation, system memory, input message, output message.

Аннотация: В данной статье дается определение понятия машинного перевода. Машинный, или автоматический, компьютерный перевод — это перевод текстов с одного языка на другой с помощью специальной компьютерной программы. В статье рассматривается практическое значение машинного перевода, его преимущества, а также ряд недостатков, а также приводятся научные доказательства.

Ключевые слова: машинный перевод, статистический машинный перевод, машинный перевод на основе нейронных сетей, системная память, входное сообщение, выходное сообщение.

Insoniyat hamisha o‘z qulayligi va vaqtini tejash uchun turli ixtirolar qilib kelgan. Mashina tarjimasi tushunchasi ham fanga insoniyatning mana shu qulaylikka intilishi natijasida kirib kelgan. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida mashina tarjimasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Mashina tarjimasi – bir tabiiy tildan ikkinchi tilga matnni raqamli hisoblash mashinalari va kompyuterlar yordamida tarjima qilish. EHM va kompyuterlar uchun dasturlar tuzish, matematik lingvistika va amaliy lingvistika kabi yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liq. Mashina tarjimasi tizimini yaratish ilmiy tadqiqotlar mahsuli hisoblanadi. Mashina tarjimasi g‘oyasini birinchi

bo‘lib fransuz ixtirochisi J. Arsruni va undan mustaqil ravishda rus ixtirochisi P. P. Smirnov-Troyanskiylar 1933-yil ilgari surishgan. Lekin u, asosan, XX asr 40-50-yillarida rivojlangan. Mashina tarjimasini jarayoni matnni tarjima qilish uchun uni tahlil etish, ya’ni morfologik, sintaktik nuqtai nazaridan o‘rganib chiqishni taqozo qiladi”. (1. 678)

Mashina tarjimasini tizimi uchun ma’lumotlar bilan ta’minlashning ushbu 5 turi zarur:

- lingvistik ta’minot (matnni taxlil va sintez qilish uchun grammatik hamda semantik ma’lumotlarni beruvchi avtomatik lug‘atlar);
- matematik-algoritmik ta’minot (matnga ishlov berish algoritmlari va ma’lumotlar va algoritmlarni qayd qilish uchun qoidalar tizimi),
- dasturiy ta’minot (tarjima algoritmini amalga oshiruvchi va qo‘shimcha dasturlar),
- informatsion ta’minot (tegishli fan sohasiga doir ma’lumotlar bazasi) hamda mantiqiy ta’minot (matnni fan sohasiga doir ma’lumotlar bilan taqqoslash uchun mantiqiy xulosalar usullari) zarur bo‘ladi.

Mashina tarjimasini tizimida qaysi tildan qaysi tilga tarjima qilinsa, o‘sha tillarning ham grammatik, ham semantik, imloviy xususiyatlarini aks ettiradigan maxsus dastur tuzib olish kerak bo‘ladi. Ammo zarur bo‘lganda, mashina tarjimasini ishiga inson, ya’ni muharrir ham aralashishi mumkin.

Olimlar kompyuter fanlari va sun’iy intellektdan foydalangan holda mashina tarjimasini qo‘llashning bir qancha afzalliklarini sanab o‘tishgan. Ulardan biri – bu mashinaning ishlash tezligi hisoblanadi. Albatta, natija yuz foiz to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin, lekin aniq faktlarga asoslangan, qolipli jummalarda foydalanilsa dolzarblikni to‘liq qondira oladi. Masalan, xarid qilish saytlari, ob-havo ma’lumotlari kabi. Shuningdek, sayohat, ma’muriy hujjatlar va davlatning ish yuritish hujjatlari kabi standart jumlar bor bo‘lgan matnlarni mashina tarjimasini yordamida tezda tarjima qilish mumkin bo‘ladi.

Ikkinchisi afzallik esa – ko‘p tilli muvofiqlik hisoblanadi. Cheklangan elektron lug‘atlardan farqli o‘laroq tillar soni, eng zamonaviy avtomatik tarjima ilovalari bir necha tillar bilan ishlashi mumkin. Jumladan, Google tarjimoni bir tildan ko‘p tillarga tarjima qilishi va chiqish tilini tezda o‘zgartirish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Uchinchi, eng muhim afzallik esa – makon va zamonda qulaylikning mavjudligi. Bizning bugungi texnika asrimizda foydalanuvchilar uchun zarur narsa ham aynan qulaylikdir. Mashina tarjimasidan har qanday vaziyatda, murakkab dasturiy qurilmalar bo‘lmagan taqdirda ham oddiy qo‘l smartfoni yordamida osonlik bilan foydalanish mumkin. Uning tezligi va ko‘p tilli ekanligi cho‘ntak lug‘atlardan samaraliroq ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, zamonaviy mashina tarjimon dasturlarining

ko‘pchiligi nutqni aniqlash va matnga aylantirish tizimiga egaligi har qanday makon va zamonda foydalanish imkonini beradi.

“Avtomatik tarjima tizimlarining katta afzalligi – to‘g‘ri tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan so‘z va iboralarni, shuningdek, ularni qidirish va boshqa tilga tarjima qilish uchun minimal vaqt sarflaydigan jummalarni qidirish ko‘nikmalarini shakllantirilganligidir”. (2.11)

Ammo shuncha afzalliklarga qaramasdan, mexanik tarjima hali ham kamchiliklarga ega. Ular quyidagilar: mexanik tarjima paytida matnning holati va foydalanuvchining ichki istagi noma‘lum, har qanday tilda talaffuzi bir xil, ammo ma‘nosi har xil bo‘lgan omonim so‘zlar mavjud. Shu sababdan tarjima qilingan versiyada xatolar uchrashi tabiiy holat. Qolaversa, mexanik tarjima dasturlari ba‘zi shevalardagi so‘zlarni “tushuna olmaydi”. Masalan, o‘zbek tilida shevalar ko‘p, o‘qish va yozish bir-biridan farq qiladi, mashina tarjimasida bu muammolar keltirib chiqaradi. Misol uchun “shoti” yoki “paqir” so‘zlarining adabiy tildagi sinonimi ishlatilmasa, tarjima dasturlari ularni “anglamasligi” ehtimoli yuqori.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mashina tarjimasidan rasmiy, ilmiy uslublarda foydalanish samarali bo‘ladi. Publitsistik uslub qisman tahrirlashni talab etadi. Badiiy va so‘zlashuv uslublarida mashina tarjimasida hozirda ancha samarasiz. Har qanday tarjima dasturlari amalga oshirgan tarjimani inson tomonidan tahrir qilishga ehtiyoj tug‘iladi. Ushbu jarayonda inson omili chekingan bo‘lishi mumkin, ammo bu butkul inson tafakkuriga ehtiyoj qolmadi degani emas.

Adabiyotlar:

1. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Кузнецов П. С., Ляпунов А. А., Реформатский А. А. Основные проблемы машинного перевода // Вопр. языкознания. 1956. № 5. С. 40–44.
3. Леонтьева Н. Н. Автоматическое понимание текстов: системы, модели, ресурсы : учеб. пособие. М. : Академия, 2006. 303 с.
4. Дроздова К. А. Машинный перевод: история, классификация, методы. Журнал СЛОВО МОЛОДЫМ, Москва, 2015.